

Jahon kompozit materiallar bozori 2035-yilga borib 224,3 mlrd dollarga yetadi

// 27.07.2026

<https://uzkimiyosanoat.uz/oz/press/news/jahon20260727>

2025-yilda jahon kompozit materiallar bozori hajmi 125,6 mlrd dollarni tashkil etdi. Tahlillarga ko'ra, bozor hajmi 2026-yildagi 133,2 mlrd dollardan 2035-yilga kelib 224,3 mlrd dollargacha o'sadi. Bu esa har yili o'rtacha qariyb 6 foizlik o'sish sur'atini anglatadi. Bunday bahoni PR agentligi o'zining so'nggi tadqiqotida keltirgan.



2025-yilda Osiyo-Tinch okeani mintaqasi (OTOM) bozorda yetakchilik qildi va umumiy bozorning 46 foiz ulushini egalladi. O'tgan yili mintaqadagi bozor hajmi 57,1 mlrd dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2035-yilga kelib bu ko'rsatkich 102,3 mlrd dollarga yetishi kutilmoqda. Shu bilan birga, prognoz davri yakuniga qadar

mintaqaning bozordagi ulushi deyarli o'zgarmaydi.

Kompozit materiallarga bo'lgan talabning o'sishiga, avvalo, aviatsiya-kosmik sanoat, avtomobilsozlik hamda qurilish tarmoqlarida yengil vaznli materiallarga ehtiyojning ortib borayotgani asosiy omil bo'lmoqda.

Tadqiqotda qayd etilishicha, mahsulot turlari kesimida shisha tolali kompozitlar (fiberglass composites) segmenti eng katta ulushga ega bo'lib, bozorning 61 foizini tashkil etadi. Yakuniy iste'mol sohalari orasida esa avtomobilsozlik va transport tarmoqlari yetakchilik qilmoqda